



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 128 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	



EKOLOGIK OMILLAR O'ZGARISHINING DEHQON XO'JALIKLARI YALPI HOSILIGA TA'SIRI



Otamurodova Dildora Abdukrimovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

otamurodovad@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5130-9732

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik omillar, xususan iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq degradatsiyasi va boshqa tabiiy omillarning dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar asosida hosildorlikka ta'sir etuvchi asosiy ekologik ko'rsatkichlar o'rganilgan, shuningdek, ularning qishloq xo'jaligi barqarorligiga bo'lgan salbiy va ijobiy ta'sirlari yoritilgan. Maqolada muammoga yechim sifatida ekologik jihatdan barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ekologik omillar, dehqon xo'jaligi, yalpi hosil, iqlim o'zgarishi, tuproq degradatsiyasi, suv resurslari.

Abstract: This article examines the impact of environmental factors—particularly climate change, the reduction of water resources, soil degradation, and other natural conditions—on the gross yield of peasant farms. The study analyzes key ecological indicators affecting productivity based on statistical data and explores both the negative and positive effects on agricultural sustainability. The necessity of implementing ecologically sustainable agricultural practices is emphasized as a solution to the identified challenges.

Key words: environmental factors, peasant farms, gross yield, climate change, soil degradation, water resources.

Аннотация: В статье рассматривается влияние экологических факторов, в частности изменения климата, сокращения водных ресурсов, деградации почв и других природных условий на валовой урожай крестьянских хозяйств. В исследовании на основе статистических данных проанализированы ключевые экологические показатели, влияющие на урожайность, а также раскрыто их отрицательное и положительное воздействие на устойчивость сельского хозяйства. Подчёркнута необходимость внедрения экологически устойчивых аграрных практик как одного из решений обозначенной проблемы.

Ключевые слова: экологические факторы, крестьянские хозяйства, валовой урожай, изменение климата, деградация почв, водные ресурсы.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik omillar va ularning iqtisodiy sohalarga, xususan qishloq xo'jaligiga ta'siri dolzarb masalaga aylangan. Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq degradatsiyasi, atmosfera havosining ifloslanishi kabi ekologik muammolar dehqon xo'jaliklari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global ekologik muammolardan mustasno emas. Xususan, mamlakat janubida joylashgan Surxondaryo viloyatidagi dehqon xo'jaliklari hosildorligi ham so'nggi yillarda turli tabiiy va ekologik omillar ta'sirida o'zgarib bormoqda.



Dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining muhim qismini yetishtiruvchi asosiy ishlab chiqaruvchi subyektlar hisoblanadi. Ular asosan kichik maydonlarda faoliyat yuritib, mahalliy aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu turdagi xo'jaliklar ekologik o'zgarishlarga juda sezuvchan bo'lib, salbiy sharoitlarda ularning ishlab chiqarish salohiyati pasayadi. Xususan, yog'ingarchilik miqdorining kamayishi, yerlarning sho'rlanishi, eroziya jarayonlari hamda atmosfera haroratining keskin o'zgarishlari dehqon xo'jaliklarida yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifati salmog'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik omillar o'zgarishi qishloq xo'jaligida yalpi hosil hajmining o'zgarishiga olib keluvchi muhim omillardan biridir. Shu bois, ushbu maqolada ekologik omillarning turlari, ularning dehqon xo'jaliklariga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'siri, shuningdek hosildorlik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilayotgani ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida Surxondaryo viloyatidagi ayrim dehqon xo'jaliklarida kuzatilgan o'zgarishlarga tayanilgan holda xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotning maqsadi – ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'sirini aniqlash, asosiy xavf omillarini baholash va ushbu muammoni yumshatish uchun ekologik barqaror choralarni taklif qilishdan iborat. Bundan tashqari, maqolada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tuproq va suv resurslaridan samarali foydalanish, iqlimga moslashgan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati ham yoritib o'tiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ekologik omillarning salbiy oqibatlarini kamaytirish orqali dehqon xo'jaliklari hosildorligini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu esa nafaqat mahalliy, balki milliy darajadagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri haqida qator olimlar va tashkilotlar tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, xorijiy manbalarda bu borada quyidagi muhim ilmiy ishlanmalar e'tiborga molikdir:

Ortiz-Bobea va boshqalar (AQSH, 2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda iqlim o'zgarishining global qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga ta'siri tarixiy jihatdan baholangan. Tadqiqotchilar 1961-yildan boshlab iqlim o'zgarishlari natijasida global umumiy omil ishlab chiqarish (TFP) darajasi 21 % ga pasayganini aniqlashgan. Bu holat dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarish salohiyatining keskin kamayishiga olib kelganini ko'rsatadi [1].

Ali va boshqalar (Pokiston, 2017) tomonidan o'rganilgan tadqiqotda iqlim o'zgarishining bug'doy, guruch, makkajo'xori va boshqa asosiy ekinlar hosildorligiga ta'siri tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, haroratning 1°C ga ortishi hosildorlikni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa o'rtacha dehqon xo'jaliklari uchun beqarorlik xavfini kuchaytiradi [2].

Osman va boshqalar (Sudan, 2021) Sudanning Gedaref shtatida olib borgan tadqiqotida yomg'irsiz sharoitlar va iqlim o'zgarishi ekinlar hosiliga bevosita ta'sir ko'rsatgani aniqlangan. Ayniqsa, yog'ingarchilikning notekis taqsimlanishi o'simliklarning o'sish siklini izdan chiqargani qayd etilgan [3].

Ibragimov va boshqalar (O'zbekiston - AQSH, 2020) tomonidan Aral dengizi havzasidagi yarim cho'l hududida olib borilgan model asosidagi tadqiqotlarda uch bosqichli ekin aylanishi sharoitida qishloq xo'jaligi hosildorligi va ekologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan. Ayniqsa, iqlimdagi ekstremal holatlar hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan [4].

FAO hisobotlari (BMT, 2024)da sho'rlangan tuproqlarning 30 % dan ortig'i global miqyosda qishloq xo'jaligiga yaroqsiz holga kelgani ta'kidlanadi. Bu holat O'zbekistonda ham mavjud bo'lib, ayniqsa suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish natijasida hosildorlik pasayganligi qayd etilgan [5].

Khasanov va boshqalar (O'zbekiston, 2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda tuproq sho'rlanishining O'zbekiston ekin maydonlariga salbiy ta'siri chuqur tahlil qilingan. Hosil miqdorining tuproqdagi tuz miqdorining ortishi bilan to'g'ridan-to'g'ri kamaygani aniqlangan. Bu holat dehqon xo'jaliklari iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid tug'diradi [6].

Sommer va boshqalar (Markaziy Osiyo, 2013) O'zbekiston va boshqa qo'shni davlatlarda olib borilgan tadqiqotda bug'doy hosilining iqlim o'zgarishiga sezuvchanligi aniqlangan. Model natijalariga ko'ra, haroratning ortishi va vegetatsiya davrining qisqarishi hosildorlikni 20–30 % ga kamaytirishi mumkin [7].

Djumaniyazova va boshqalar (O'zbekiston, 2020) tomonidan Urganch davlat universitetida olib borilgan tadqiqotda yarim cho'l hududida ekin aylanishi va agrotexnologiyalarning hosildorlikka ta'siri model asosida ilmiy tahlil qilingan. Sho'r tuproqlarda iqlim o'zgarishiga chidamli agrotexnik chora-tadbirlarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan [8].

Nurbekov va boshqalar (O'zbekiston, 2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda konservatsion ishlov berish texnologiyalarining quruq mintaqalarda qishki bug'doy va soya yetishtirishga ta'siri o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, ekologik barqaror uslublar yordamida iqlimning salbiy ta'sirlarini kamaytirish mumkinligi ko'rsatilgan [9].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi – ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'sirini aniqlash, ekologik omillarning turli shakldagi ta'siri va ularning qishloq xo'jaligiga yetkazishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari orqali qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlash ko'zda tutilgan.

Metodologik yondashuv sifatida mavzuni ilmiy o'rganish, statistik tahlil, mantiqiy tahlil va solishtirma usullardan foydalanilgan. Tadqiqot davomida turli ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, ekologik omillar bilan hosildorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik omillar, jumladan iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, tuproq sho'rlanishi va ekstremal ob-havo holatlari dehqon xo'jaliklarining yalpi hosiliga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Global miqyosda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, iqlim omillaridagi salbiy o'zgarishlar donli ekinlar hosildorligini 20–40 % gacha kamaytirishi mumkin [10].

Masalan, 2024-yilgi yoz mavsumida Fransiya kuzatilgan haddan tashqari issiqlik va qurg'oqchilik tufayli bug'doy hosildorligi 35 % ga kamaygan. Bu holat iqlim o'zgarishlarining qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini yaqqol namoyon etadi [11].

O'zbekiston kontekstida esa ekologik omillar, ayniqsa suv tanqisligi va sho'rlanish, paxta, bug'doy hamda sabzavot mahsulotlari hosildorligining pasayishiga olib kelmoqda. Orolbo'yi mintaqasida olib borilgan dala tadqiqotlari natijalariga ko'ra, sho'rlangan yerlar hosildorligi 30–50 % ga kamaygani aniqlangan [12]. Bundan tashqari, noto'g'ri sug'orish amaliyotlari tuproq strukturasining buzilishiga, eroziya va tuzlanish jarayonlariga sabab bo'lmoqda. Suv tejoychi texnologiyalarning yetarlicha joriy qilinmagani O'zbekistonda yer resurslari degradatsiyasini kuchaytirmoqda [13].

Iqlimning ekstremal holatlari, jumladan qurg'oqchilik va issiq havo to'lqinlari, hosildorlikda 18–43 % farqni yuzaga keltirishi mumkin. Bu o'zgarishlar ayniqsa makkajo'xori, bug'doy, guruch va soya kabi asosiy ekinlarda sezilarli darajada kuzatilmoqda.


Shu bilan birga, O'zbekistonda suv taqchilligi va noto'g'ri sug'orish amaliyotlari tuproq degradatsiyasini kuchaytirib, hosildorlikning pasayishiga olib kelmoqda.

Ekologik omillarning dehqon xo'jaliklari hosildorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida asosiy agroklimatik xavflar bo'yicha tahlil olib borildi. Quyidagi jadvalda qurg'oqchilik, issiq havo to'lqinlari, tuproq sho'rlanishi va suv taqchilligi kabi omillarning eng ko'p uchraydigan ekin turlariga ko'rsatgan ta'siri foiz ko'rsatkichlarida ifodalangan. Ushbu ko'rsatkichlar iqlim va yer resurslarining holati bilan bog'liq ravishda hosildorlikda yuzaga keladigan pasayish ehtimolini ifodalaydi.

1-jadval. Ekologik omillarning asosiy ekinlar hosiliga ta'siri

Ekologik omil	Ta'sir ko'rsatilgan ekinlar	Ta'sir darajasi (%)
Qurg'oqchilik	Bug'doy, makkajo'xori	20-30%
Issiq havo to'lqinlari	Guruch, makkajo'xori	15-25%
Tuproq sho'rlanishi	Bug'doy, paxta	10-20%
Suv taqchilligi	Paxta, guruch	5-15%

Quyidagi diagrammada O'zbekiston sharoitida asosiy ekologik omillarning dehqon xo'jaliklari hosildorligiga ko'rsatgan ta'sir darajasi foizlarda ifodalangan. Tahlil natijalariga ko'ra, eng katta ta'sir omili sifatida qurg'oqchilik (25 %) ajralib turibdi. Bu holat iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslariga bo'lgan ehtiyojning ortganidan dalolat beradi. Issiq havo to'lqinlari (20 %) ham donli va sabzavotli ekinlar hosildorligida sezilarli pasayishga olib kelmoqda. Tuproq sho'rlanishi (15 %) esa ayniqsa paxta va bug'doy kabi ekinlar uchun xavfli omil bo'lib, yer unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nisbatan past ko'rsatkichga ega suv tanqisligi (10 %) esa baribir befarq qoldirib bo'lmaydigan ekologik xavf hisoblanadi, ayniqsa irrigatsiyaga tayanadigan hududlarda.



1-rasm. Ekologik omillarning hosilga ta'siri

Ushbu raqamlar O'zbekiston sharoitida ekologik xavflarning dehqonchilik faoliyatiga qanchalik katta ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ayniqsa, fermer xo'jaliklarining aksariyati suvga bog'liq ekinlarni yetishtirayotganini inobatga olsak, suv tanqisligi strategik muammo sifatida qaralishi lozim.

Ayni paytda FAO va boshqa xalqaro tashkilotlar ko'magida suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshiruvchi agrotexnik choralarining ko'lamini kengaytirish va agroekologik monitoringni kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda [5]. Shuningdek, O'zbekistonda iqlimga mos navlarni yaratish hamda noan'anaviy ekinlar (masalan, zig'ir, pista) yetishtirish orqali hosildorlikni barqarorlashtirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Orolbo'yida diversifikatsiyalangan dehqonchilik usullarini joriy etish 2022–2024-yillarda ayrim tumanlarda 15–20 % gacha yalpi daromad o'sishini ta'minlagani aniqlangan [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi ushbu ehtiyojni barqaror ravishda qondirishni taqozo etadi. Bu esa qishloq xo'jaligining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, uni uzluksiz amalga oshirishni talab etadigan yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega tarmoq sifatida qaralishiga sabab bo'lmoqda.

Shu bilan birga, ekologik omillarning hosildorlikka ta'sirini kamaytirish maqsadida qishloq xo'jaligida diversifikatsiya qilish, suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, tuproqni tiklash va muhofaza qilish chora-tadbirlarini tizimli asosda amalga oshirish zarur.

Iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun esa innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi texnologiyalarni qo'llash, iqlimga mos va yuqori hosildor navlarni yetishtirish hosildorlikni oshirish imkonini beradi. Bu borada davlat va xalqaro tashkilotlarning institutsional hamkorligi, moliyaviy va texnik ko'magi alohida ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ekologik omillarning dehqon xo'jaliklari hosildorligiga ta'sirini kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar va amaliy chora-tadbirlarning uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ortiz-Bobea, A. va boshqalar. (2020). The Historical Impact of Anthropogenic Climate Change on Global Agricultural Productivity. arXiv. <https://arxiv.org/abs/2007.10415>
2. Ali, S. va boshqalar. (2017). Climate Change and Its Impact on the Yield of Major Food Crops: Evidence from Pakistan. Foods, 6(6), 39. <https://doi.org/10.3390/foods6060039>
3. Osman, M. A. A. va boshqalar. (2021). Climate Variability and Change Affect Crops Yield under Rainfed Conditions. Agronomy, 11(9), 1680. <https://doi.org/10.3390/agronomy11091680>
4. Ibragimov, N. va boshqalar. (2020). Simulating Crop Productivity in a Triple Rotation in the Semi-arid Area of the Aral Sea Basin. International Journal of Plant Production, 14(3), 273–285. <https://doi.org/10.1007/s42106-019-00083-3>
5. FAO. (2024). Climate Change and Soil Salinization Report. <https://news.cornell.edu/stories/2021/04/climate-change-has-cost-7-years-ag-productivity-growth>
6. Khasanov, S. va boshqalar. (2023). Impact Assessment of Soil Salinity on Crop Production in Uzbekistan. Agriculture, Ecosystems & Environment, 342, 108262. <https://doi.org/10.1016/j.agee.2022.108262>
7. Sommer, R. va boshqalar. (2013). Impact of Climate Change on Wheat Productivity in Central Asia. Agriculture, Ecosystems & Environment, 178, 78–99. <https://doi.org/10.1016/j.agee.2013.06.016>
8. Djumaniyazova, Y. va boshqalar. (2020). Simulating Crop Productivity in a Triple Rotation in the Semi-arid Area of the Aral Sea Basin. IJPP, 14(3), 273–285. <https://doi.org/10.1007/s42106-019-00083-3>
9. Nurbekov, A. va boshqalar. (2025). Arid Irrigated Winter Wheat and Soybean Cropping under Conservation Tillage Systems. Frontiers in Sustainable Food Systems, 9, 1512277. <https://doi.org/10.3389/fsufs.2025.1512277>
10. Wheeler, T. and von Braun, J. (2013). Climate Change Impacts on Global Food Security. Science, 341(6145), 508–513.
11. Le Monde. (2024). "2024: A year of agricultural calamities driven by climate change." https://www.lemonde.fr/en/environment/article/2024/10/18/2024-a-year-of-agricultural-calamities-driven-by-climate-change_6729802_114.html
12. FAO Uzbekistan. (2023). Assessment of Soil Salinity and Crop Yield Reduction in Karakalpakstan. <https://www.fao.org/uzbekistan/>
13. Jalilov, S. va boshqalar. (2018). Irrigation Practices and Land Degradation in Uzbekistan. Environmental Monitoring and Assessment, 190(3), 167.
14. FAO. (2022). Innovations for Climate-Smart Agriculture in Central Asia. <https://www.fao.org/climate-smart-agriculture>
15. Mamatov, B. (2024). Socio-Economic Impacts of Crop Diversification in Aral Sea Region. Sustainability, 16(2), 347.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>